

Toshkentdagi ta'mirlanadigan ko'chalar ro'yxati tasdiqlandi



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 5 avgustdagи "Toshkent shahridagi magistral ko'chalarni modernizatsiya va rekonstruktsiya qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 227-sonli qarori bilan 2015-2016 yillar davomida poytaxtning rekonstruktsiya qilinadigan va ta'mirlanadigan magistral ko'chalarini ro'yxati tasdiqlandi.

Hukumatning mazkur hujjati bilan shaharning magistral ko'chalaridagi rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash, shuningdek, hududlarning me'moriy qiyofasini yangilash va obodonlashtirish ishlari bo'yicha buyurtmachi sifatida – **Toshkent shahar hokimligining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi**, bosh loyihami tashkilot sifatida esa "**ToshkentboshplanLITI**" DUK belgilandi.

Qarorga asosan poytaxtdagi ro'yxatga kiritilgan magistral ko'chalarning rekonstruktsiyasi va ta'miri, hududlarning me'moriy qiyofasi yangilanishi hamda obodonlashtirilishining sifatli va o'z vaqtida bajarilishi bo'yicha - Toshkent shahar hokimligi, Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi va "O'zavtoyo'l" DAK rahbariyati shaxsan javobgar ekanliklari belgilab qo'yildi.

Tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra, Mustaqillik, **Mirzo Ulug'bek, Do'rmon, Taraqqiyot, Do'stlik** ko'chalaridagi - modernizatsiya va rekonstruktsiya ishlari, mazkur hududlarning me'moriy qiyofasi yangilanishi va obodonlashtirish ishlari, shuningdek, tramvay yo'llarini olib tashlash, yorituvchi uskunalarini ta'mirlash kabi ishlar 2015 yil oxirigacha o'z yakuniga yetadi.

Bobur ko'chasining – aeroport hududidan O'zbekiston ko'chasigacha bo'lgan qismi; Nukus ko'chasining – Bobur ko'chasiidan Abdulla Qodiriy ko'chasigacha bo'lgan qismi va Mustaqillik ko'chasigacha; Afrosiyob ko'chasining – Sharof Rashidov ko'chasiidan to Nukus ko'chasigacha bo'lgan qismi; shuningdek, Amir Temur ko'chasining Amir Temur xiyobonidan Quloqtepa ko'chasigacha bo'lgan qismidagi modernizatsiya va rekonstruktsiya ishlari esa - 2015-2016 yillar davomida amalga oshiriladi.

"Uzavtoyul" AK Matbuot xizmati